

“SHAJARAYI TURK” ASARIDA O‘G‘UZXON VA CHINGIZXON OBRAZLARINING QIYOSIY TAHLILI

Fazliddinova Mayramxon

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘g‘uzxon va Chingizxonning tug‘ilishi, bolalik davri, yurishlari va siyosiy faoliyatini qiyosiy tahlil qiladi. Maqolada ikki buyuk hukmdorning o‘xshash va farqli jihatlari, qabila birligini saqlash va hududiy kengayishga bo‘lgan intilishlari ko‘rsatildi. O‘g‘uzxonning yurishlari siyosiy barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa, Chingizxonning yurishlari keng hududlarni zabt etish va imperiya barpo etishga yo‘naltirilgan. Ikkala hukmdor ham adolat, jasorat va dono qarorlar bilan ajralib turadi, tarixiy merosini keyingi avlodlarga yetkazgan.

Annotation

This article presents a comparative analysis of the birth, childhood, military campaigns, and political activities of Oghuz Khan and Genghis Khan. It highlights the similarities and differences between the two great rulers, focusing on their efforts to maintain tribal unity and expand their territories. While Oghuz Khan's campaigns were aimed at political stability and peace, Genghis Khan's campaigns focused on territorial conquest and the establishment of an empire. Both rulers are distinguished by their justice, courage, and wise decisions, leaving a significant historical legacy for future generations.

Аннотация

В статье представлен сравнительный анализ рождения, детства, военных походов и политической деятельности Огузхана и Чингисхана. Подчёркнуты сходства и различия двух великих правителей, их усилия по поддержанию единства племени и расширению территорий. В то время как походы Огузхана были направлены на политическую стабильность и мир, походы Чингисхана ориентировались на завоевание территорий и создание империи. Оба правителя

выделялись справедливостью, смелостью и мудрыми решениями, оставив значительное историческое наследие для последующих поколений.

Kalit soʻzlar: harbiy strategiya, sulh, adolat, qon, musulmon, jangovar xarakter, imperiya.

Kirish

Markaziy Osiyo va dunyo tarixida ikki buyuk shaxs — Oʻgʻuzxon va Chingizxon — oʻz davrining siyosiy, harbiy va ijtimoiy hayotiga chuqur taʼsir koʻrsatgan. Ikkalasi ham nasab jihatdan hurmatli urugʻga mansub boʻlib, tugʻilishlaridan boshlab el va qabila orasida yetuk shaxs sifatida tanilgan. Ularning hayot yoʻllari va yurishlari nafaqat oʻz davrining, balki keyingi avlodlar tarixini shakllantirgan. Ushbu maqolada Oʻgʻuzxon va Chingizxonning tugʻilishi, bolalik davri, yetuklik va siyosiy faoliyati hamda yurishlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqsad — ularning oʻxshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda tarixiy merosini chuqurroq tushunish.

Oʻgʻuzxon va Chingizxon tugʻilishi

Oʻgʻuzxon, qadimgi turkiy rivoyatlarda taʼkidlanishicha, qabilaning yetuk va obroʻli urugʻida dunyoga kelgan. Tugʻilishidan boshlab u katta umid uygʻotgan va qabila orasida oʻziga xos moʻjizaviy belgilar bilan ajralib turgan. Rivoyatlarga koʻra, Oʻgʻuzxon musulmon boʻlib tugʻilgan. Onasini uch kungacha emmagan, har kuni tushiga kirib musulmonlikni qabul qilsang, keyin emaman degan. Shundan soʻng onasi imon keltiradi va u onasini emadi. Shuningdek, oʻz ismini oʻzi “Oʻgʻuz” deb qoʻygan. Ularda bola 1 yoshga toʻlmaguncha ism qoʻyilmasdi, ism qoʻyilish marosimida u ismini oʻzi qoʻygan.

Chingizxon (Temuchin) 1162-yilda Moʻgʻuliston hududida dunyoga kelgan. Chingizxon bir qoʻli yumuq tugʻilgan. Qoʻlini ochib qarashsa, qotgan qon boʻlgan. Bu uning yetuk shaxs, kuchli davlat arbobi boʻlishidan darak beradi. Yoshligidan harbiy bilimlarni chuqur oʻzlashtirgan va otasi vafotidan keyin, U 13 yoshida oʻz qabilasini boshqarish bilan shugʻullangan, jang va siyosiy qarorlar qabul qilishni oʻrganib ulgʻaygan.

Qiyos: Ikkala shaxs ham tug'ilishidan boshlab xalq orasida yetuk shaxs sifatida tanilgan. O'g'uzxon barqaror nasab va tarixiy merosga ega bo'lsa, Chingizxon yoshligida qiyinchiliklarni yengib, o'z kuchini va hukmdorlik qobiliyatini shakllantirgan.

Yurishlari va siyosiy faoliyati

O'g'uzxonning yurishlari geografik jihatdan keng hududlarni qamrab olgan: Markaziy Osiyo, Hindiston, Eron, Shom va Misr hududlari. U yurishlar davomida davlat boshqaruvi, siyosiy maslahatlar va qabila ittifoqlarini uyg'unlashtirish orqali qabilalarni birlashtirgan. O'g'uzxonning yurishlari ko'proq tinchlik, adolat va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan bo'lgan. Har yurishda u o'z shaxsiy obro'sini oshirib, xalqlar o'rtasida tinchlikni saqlashga intilgan.

Chingizxonning yurishlari keng qamrovli va ko'proq harbiy xarakterga ega bo'lgan. U Mo'g'ul va boshqa turkiy qabilalarni birlashtirib, Markaziy Osiyo, Xitoy, Horazm va Samarqand hududlarini zabt qilgan. Chingizxonning harbiy yurishlari nafaqat hududiy kengayishga, balki qabila birligi va siyosiy obro'ni oshirishga xizmat qilgan. U o'z yurishlarida qat'iyat, strategik tafakkur, harbiy mahorat va adolat tamoyillarini uyg'unlashtirgan.

Qiyos: Ikkala hukmdor ham qabila birligini va hududiy kengayishni ta'minlashga intilgan. O'g'uzxonning yurishlari siyosiy barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga qaratilgan bo'lsa, Chingizxonning yurishlari jangovar xarakterga ega va hududiy imperiya barpo etishga qaratilgan.

Hukmdorlik va siyosiy meros

O'g'uzxonning siyosiy merosi asosan qabila va el boshqaruvi, davlat tashkil etish va tinchlikni ta'minlash bilan bog'liq. U o'z yurishlari orqali xalqaro obro' qozonib, naslidan keyingi hukmdorlar uchun asos yaratgan. O'g'uzxon tarixiy rivoyatlar va dostonlarda adolatli, dono va jasur shaxs sifatida tasvirlangan.

Chingizxon esa o'z davrining eng kuchli imperatorlaridan biri sifatida tanilgan. U Mo'g'ul imperiyasini tashkil etib, keng hududlarni birlashtirgan. Chingizxonning yurishlari va siyosiy faoliyati xalqaro maydonda uning obro'sini oshirgan, harbiy

strategiya va davlat boshqaruvi bo'yicha tarixiy namunalar yaratgan. Shu bilan birga, u o'z xalqiga adolat va tartibni ta'minlashni maqsad qilgan.

Qiyos: O'g'uzxon va Chingizxon hukmdorlik merosini shakllantirishda o'xshash, ammo Chingizxon geografik va siyosiy ta'sir jihatdan kengroq hududni qamrab olgan. Ikkala shaxs ham adolat, dono qarorlar va strategik tafakkur bilan ajralib turgan.

O'g'uzxon obrazi ko'proq afsonaviy va ramziy mazmunga ega bo'lib, u turkiy xalqlarning siyosiy xotirasida muqaddas ajdod, ideal hukmdor va tartib asoschisi sifatida shakllangan. Uning yurishlari hududiy zabt etishdan ko'ra, dunyoviy tartib o'rnatish, adolatni qaror toptirish va turli elatlarni umumiy mafkura atrofida birlashtirishni ko'zlagan. Shu sababli O'g'uzxon mafkuraviy birlik va siyosiy an'ananing timsoli sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

Chingizxon esa real tarixiy jarayonlar ichida yetishib chiqqan, qiyin sinovlardan o'tgan va o'z kuchi bilan hokimiyatni qo'lga kiritgan sarkardadir. U yaratgan imperiya harbiy-siyosiy jihatdan nihoyatda puxta tashkil etilgan bo'lib, markazlashgan boshqaruv, qat'iy qonunchilik va yuqori darajadagi harbiy intizomga tayangan. Chingizxon faoliyati natijasida Yevrosiyo makonida tarixiy, siyosiy va madaniy jarayonlar tezlashgan, turli xalqlar o'rtasidagi aloqa kuchaygan.

Xulosa

Qiyoslash natijasida ma'lum bo'ladiki, O'g'uzxon ko'proq ideal hukmdor va ramziy davlat asoschisi bo'lsa, Chingizxon amaliy siyosat va real imperiya bunyodkori sifatida namoyon bo'ladi. biri — siyosiy tafakkur va an'ananing manbai, ikkinchisi — harbiy-strategik dahoning yorqin namunasi. Shunga qaramay, ularning har ikkisi ham o'z davrining mahsuli sifatida tarixiy zarurat natijasida yuzaga kelgan va jamiyat taraqqiyotiga muhim ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, O'g'uzxon va Chingizxon siymolari turkiy–mo'g'ul siyosiy madaniyatining ikki muhim bosqichini aks ettiradi. O'g'uzxon siyosiy birlik g'oyasining asoschisi bo'lsa, Chingizxon ana shu g'oyani real tarixiy maydonga olib chiqib, amalda ro'yobga chiqargan shaxsdir. Ularning merosi keyingi davlatlar boshqaruvi, harbiy san'at

va siyosiy tafakkur rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan va bugungi kunda ham tarixiy o'rganishlar uchun muhim manba bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. – Toshkent: Sharq, 1992.
2. Xudoynazarov. H. Abulg'oziy Bahodirxon tarixchi va adib. T: O'zbekiston-1994.
3. Quranboyeva S.M. Abulg'oziy Bahodirxon ilmiy faoliyatining o'rganilishi.
4. Adizova. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. T.: 2009
5. Bartold, V.V. Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida. – Toshkent: Fan, 1963.
6. Bartold, V.V. Turkiy xalqlar tarixidan ocherklar. – Moskva–Leningrad, 1968.
7. G'afforov, A. Chingizxon va uning davri. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.